

АКАДЕМИК ЯАҺЬО Ғ‘УЛОМОВНИНГ ХОРАЗМ ТАРИХИНИ О‘РҒАНИШДАГИ РОЛИ

Avalbayeva Nargiza Rustam qizi
Jizzax davlat pedagogika
universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada akademik Yahyo G‘ulomovning Xorazm vohasi tarixini ilmiy jihatdan o‘rganishdagi xizmatlari tahlil qilinadi. Olimning arxeologik tadqiqotlari, qadimgi sug‘orish tizimlarini o‘rganish borasidagi ilmiy qarashlari hamda Xorazm sivilizatsiyasining shakllanishi haqidagi xulosalari yoritiladi. Shuningdek, uning ilmiy merosining bugungi tarixshunoslik va arxeologiya fanidagi o‘rni baholanadi. Tadqiqot davomida Yahyo G‘ulomovning faoliyati nafaqat tarixiy haqiqatni tiklashga, balki O‘zbekistonning qadimiy madaniy merosini ilmiy asosda dunyoga tanitishga xizmat qilganligi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Yahyo G‘ulomov, Xorazm, arxeologiya, sug‘orish tizimi, qadimgi sivilizatsiya, ilmiy meros, tarixshunoslik, arxeologik yodgorlik, madaniy meros.

Har bir xalqning tarixiy taraqqiyotini chuqur anglashda ilm-fan vakillarining xizmatlari alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston tarixshunosligida Xorazm vohasining qadimgi va o‘rta asrlar tarixini ilmiy asosda o‘rgangan olimlar orasida akademik Yahyo G‘ulomov alohida o‘rin egallaydi. U Xorazm tarixini faqat siyosiy voqealar orqali emas, balki arxeologik topilmalar, sug‘orish inshootlari, moddiy madaniyat yodgorliklari va tarixiy geografiya bilan bog‘liq holda kompleks tarzda tadqiq etgan.

Akademik Yahyo G‘ulomov XX asr o‘zbek arxeologiya fanining asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning ilmiy faoliyati davomida Xorazm vohasining tarixiy taraqqiyotiga oid ko‘plab yangi ilmiy xulosalar ilgari surildi. Olim tarixni faqat yozma

manbalar asosida emas, balki moddiy madaniyat yodgorliklari orqali o'rganish zarurligini amaliy tadqiqotlari bilan namoyon etdi.

Yahyo G'ulomov olib borgan ilmiy izlanishlar natijasida Xorazmning qadimgi davrlardan boshlab rivojlangan dehqonchilik markazi bo'lgani, bu hududda murakkab irrigatsiya tizimlari shakllangani hamda yuksak madaniyat mavjud bo'lgani ilmiy dalillar bilan isbotlandi. Bu tadqiqotlar O'zbekiston tarixining qadimiy ildizlarini yanada chuqurroq anglash imkonini berdi.

Akademik Yahyo G'ulomov Xorazm vohasining qadimiy o'tmishi va sug'orish dehqonchiligini ilmiy asosda o'rganishga ulkan hissa qo'shgan arxeolog olimdir. U 1936–1939-yillardan boshlab hududdagi tarixiy yodgorliklarni bevosita kuzatib, S.P.Tolstov boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiyalarda faol ishtirok etgan. Olimning "Xorazmning sug'orilish tarixi" fundamental asari voha irrigatsiyasi, qadimgi madaniyatlar va ilk davlatchilik tarixini ochib bergan asosiy manba hisoblanadi.

Ko'hna Xorazm o'tmish tarixi va madaniyati olim e'tiborini talabalik davridayoq o'ziga jalb qilgan edi. 1925-yilda S.P. Tolstov ilk bor Xorazmga tashrif buyurib, o'lkaning boy arxeologiyasi va etnografiyasi bilan shug'ullana boshlagan. S.P.Tolstov 1932-1934-yillari O'rta Osiyo tarixi va etnografiyasini o'rganish ekspeditsiyasiga bosh bo'lib, Xorazm vohasining Xiva, To'rtko'l va Chimboy tumanlarida tadqiqot ishlarini olib boradi.¹

Yahyo G'ulomovning eng muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri qadimgi sug'orish tizimlarini o'rganish bo'ldi. Uning fikricha, Xorazm sivilizatsiyasining shakllanishida Amudaryodan chiqarilgan sun'iy kanallar va irrigatsiya inshootlari hal qiluvchi omil bo'lgan. Olim qadimgi kanallar izlarini aniqlash orqali aholi yashash hududlari, dehqonchilik rivoji hamda davlat boshqaruvi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ilmiy asosda tushuntirib berdi.

Dunyoga mashhur Sankt Peterburg shahridagi Ermitaj muzeyi direktori, akademik B.B.Piotrovskiy ta'kidlaganidek, "Yahyo G'ulomovning O'rta Osiyo

¹ Abdullayev Mirjalol O'ktam o'g'li. Qadimgi Xorazm tarixini o'rganishda S.P.Tolstov ilmiy merosining ahamiyati. Maqola, 319-b.

xo‘jalik hayotining asosi hisoblangan sug‘orish sohasidagi tadqiqotlari haqiqatan ham buyukdir”.²

Y.G‘ulomov o‘zining ko‘p yillik tinimsiz izlanishlari natijasi o‘laroq, “Xorazmning sug‘orilishi tarixi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Keyinchalik uning qo‘lyozmasi to‘ldirilib, 1957-yil ruscha va 1959-yilda o‘zbek tillarida monografiya shaklida nashr qilindi.³

“Nima uchun XVII asrda va XIX asrning birinchi yarmida Xorazm aholisi katta-katta yerlarni sug‘ora oldi, to‘g‘rirog‘i qilib aytganda, sug‘orishni tiklay oldi-yu, keyinchalik bu tadbirlarni davom ettira olmadi va gullayotgan rayonlarning vayron bo‘lishiga yo‘l qo‘ydi?

Bu savollarga javob berish uchun mamlakatning rivojlanishidagi ayrim tarixiy davrlarni jiddiy o‘rganish talab qilinadi, chunki faqat shu yo‘l bilangina Xorazm dehqonlariga va Sharqning boshqa mamlakatlari dehqonlariga ishlab chiqarish kuchlarining o‘ziga xos rivojlanish sharoitlari u yoki bu davrda irrigatsiya tarmoqlari to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, uni kuzatib turish, shuningdek, davlatning tashqi va ichki xavfsizligini saqlashda davlat hokimiyatidan qay darajada talab qilganini aniqlash mumkin” - deyiladi asarda.⁴

Qadimiy obidalarni tavsiflar ekan, Yahyo G‘ulomov 1917-yil inqilobigacha Xivada oltmishdan ortiq madrasa bo‘lganligini yozadi. Bu ilmiy asarni yozishda va Xivadagi tarixiy obidalarni o‘rganishda Yahyo G‘ulomovga arab alifbosini bilishi ham juda qo‘l kelgan.⁵

Bundan tashqari arab, fors tilidagi qo‘lyozma asarlar va ularning ingliz, nemis, rus tilidagi nashrlari hamda rus mualliflarining kitoblaridan 400 dan ortig‘ini o‘qib o‘rganib, o‘z asarlarida shu manbalardan iqtiboslar keltirib o‘tdi. Ulardagi voqeliklar jarayonini bir-biriga taqqoslab chiqdi, shulardan kelib chiqib mavzuga yondoshgan holda sohaga doir betakror asarlar yaratadi.

² Бекмухаммад У. Яхё Ғуломов (ҳаёти ва фаолияти). —Урганч.: 2007.—Б. 14-15.

³ Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. 1957. Б–313.

⁴ Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиши тарихи: қадимги замонлардан ҳозиргача. Т.: ЎзФАН, 1959.7-6.

⁵ Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich, Dilshodbek Sheraliyev. Yahyo G‘ulomovning Xorazm tarixini o‘rganishdagi o‘rni. Maqola. 126-b.

Akademik V. V. Bartold soʻz yuritilayotgan manbalarning ahamiyatiga baho berar ekan, “Adabiy va tarixiy asarlar sifatida Munis va Ogahiyning yozganlari qanchalik kamchiliklarga ega boʻlmasin, bu asarlar tasvirotining toʻlaligi va faktik materiallarning koʻpligi jihatidan Buxoro va Qoʻqon xonliklari tarixi boʻyicha yozilgan, bizgacha yetib kelgan barcha asarlardan ancha ustun turadi”,⁶ deb toʻgʻri koʻrsatadi.

Olim V.V.Bartoldning “Turkistonning sugʻorilish tarixi” asarini ham chuqur oʻrganadi, shu bilan birga uning ayrim fikr-mulohazalariga eʼtiroz bildiradi.⁷ Ya.Gʻulomov V.V.Bartold Xorazmda boʻlmagan va Xorazmni tarixiy topografiyasini yaxshi bilmagan hamda yuqoridagi asarini asosan yozma manbalar asosida yozgan deb hisoblagan.⁸

Shu bilab bir qatorda, Xorazm vohasining rivojlanish tarixini oʻrganishda N. I. Veselovskiyning “Xiva xonligiga oid tarixiy-geografik maʼlumotlar ocherki”, Ya. V. Xanikovning “Orol dengizi, Xiva xonligi va ularning atrofi kartasiga izoh xati”, Danilevskiyning “Xiva xonligi tavsifi” degan asarlarini, shuningdek, Gladishev, Muravin, Muravyov va boshqalarning xotiralarini muhim manba koʻrsatish mumkin. Bu asarlar muallif faoliyatida alohida diqqatga sazovordir.

Olimning ilmiy yondashuvining muhim jihati shundaki, u tarixni tabiiy muhit bilan bogʻliq holda tahlil qildi. Amudaryo oʻzanlarining oʻzgarishi, suv taqsimoti va iqlim omillari Xorazm taraqqiyotiga qanday taʼsir koʻrsatganini kompleks tarzda oʻrgandi. Yahyo Gʻulomovning eng katta yutugʻi faqat yangi tarixiy faktlarni aniqlash emas, balki Xorazm tarixini Oʻzbekiston davlatchiligi va Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida ilmiy asosda talqin qilganidadir.

Akademik Yahyo Gʻulomov Xorazm vohasining qadimgi tarixi, sugʻorish tizimi, dehqonchilik madaniyati va shaharsozlik taraqqiyotini ilmiy asosda tadqiq etgan yetuk tarixchi va arxeologlardan biridir. Olim tomonidan olib borilgan

⁶ В. В. Бартольд. История культурной жизни Туркестана. 113-б.

⁷ Канимкулов Олимжон Шералиевич, Яхъя Гулямов - крупный ученый-исследователь истории орошаемой земледельческой культуры // Вестник науки и образования. 2020. №9-3 (87).

⁸ Ғулумов Я. «Хоразмнинг суғорилиш тарихи, қадимги замонлардан ҳозиргача» Т-1959-йил; 10-бет;

arxeologik qazishmalar hamda tarixiy-geografik tadqiqotlar Xorazm vohasining Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixidagi oʻrni va ahamiyatini ilmiy dalillar asosida yoritishga xizmat qildi. Ayniqsa, uning vohadagi qadimgi sugʻorish inshootlari, kanal va ariqlar tizimining shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlariga bagʻishlangan izlanishlari Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini chuqurroq anglash imkonini berdi.

Xulosa qilib aytganda, Yahyo Gʻulomov oʻz tadqiqotlarida arxeologik topilmalarni yozma tarixiy manbalar bilan qiyosiy tahlil qilish usulidan unumli foydalandi. Natijada Xorazm tarixiga oid koʻplab masalalarga yangicha ilmiy yondashuv shakllandi, ayrim tarixiy qarashlar esa daliliy asosda qayta koʻrib chiqildi. Uning "Xorazmning sugʻorish tarixi" nomli fundamental asari nafaqat Xorazm, balki butun Markaziy Osiyoda irrigatsiya tarixi boʻyicha yaratilgan eng muhim ilmiy tadqiqotlardan biri sifatida eʼtirof etiladi.

Shuningdek, olim Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi faoliyatida faol ishtirok etib, vohada yuzlab tarixiy va arxeologik yodgorliklarni aniqlash, roʻyxatga olish va ilmiy muomalaga kiritishda katta xizmat qildi. Bu tadqiqotlar keyingi avlod tarixchi va arxeologlari uchun mustahkam ilmiy manba vazifasini oʻtamoqda.

Bugungi kunda ham Yahyo Gʻulomovning ilmiy merosi oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Uning asarlari Xorazm vohasi tarixini oʻrganishda asosiy manbalardan biri boʻlib qolmoqda hamda yangi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va metodologik poydevor vazifasini bajarmoqda. Shu bois, Yahyo Gʻulomovni Xorazm vohasi tarixini ilmiy asosda tadqiq etish maktabining asoschilaridan biri, milliy tarixshunoslik va arxeologiya fanining yirik namoyandasi sifatida eʼtirof etish mumkin. Uning ilmiy faoliyati Oʻzbekiston tarix fanining rivojlanishiga ulkan hissa qoʻshgan boʻlib, Xorazmning boy tarixiy-madaniy merosini chuqur oʻrganish va asrab-avaylash yoʻlidagi izlanishlar uchun bugungi kunda ham muhim ilmiy asos boʻlib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиши тарихи: қадимги замонлардан ҳозиргача. Т.: ЎзФАН, 1959. 326-б.
2. Abdullayev Mirjalol O'ktam o'g'li. Qadimgi Xorazm tarixini o'rganishda S.P.Tolstov ilmiy merosining ahamiyati. Maqola, 319-b.
3. Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich, Dilshodbek Sheraliyev. Yahyo G'ulomovning Xorazm tarixini o'rganishdagi o'rni. Maqola. 126-b.
4. Бекмухаммад У. Яхё Гуломов (ҳаёти ва фаолияти). —Урганч: 2007.—Б. 14-15.
5. Канимкулов Олимжон Шералиевич, Яхья Гулямов - крупный ученый-исследователь истории орошаемой земледельческой культуры // Вестник науки и образования. 2020. №9-3 (87).
6. В. В. Бартольд. История культурной жизни Туркестана. 113-б.